



MAHALLALARNI IJTIMOYIY RIVOJLANISHIDA YOSHLARDA MAS'ULIYAT
TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Murodova Dildora Yo'lchi qizi

Jizzax politexnika instituti Biotexnologiya yo'nalishi 391-25 guruh talabasi

dildora.murodova2502@gmail.com

Abduvaliyev Ortiq Abdulxamidovich

Jizzax politexnika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishida yoshlarning daxldorligini oshirish va uni takomillashtirish masalalari ustivor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilishi, Yoshlarga oid davlat siyosati masalalarini fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim qadriyatiga aylanishi asosida hayotiy istiqbollari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, yoshlar faolligi, ijtimoiy munosabatlar, innovatsion faollik, ijtimoiy muammo, iqtisod, ma'naviy islohotlar.

Аннотация: В статье рассматриваются перспективы жизни, основанные на признании вопросов повышения и улучшения участия молодежи в развитии социальных отношений в нашей стране в качестве одной из приоритетных задач, а также на превращении вопросов государственной политики в отношении молодежи в важнейшую ценность построения гражданского общества.

Ключевые слова: гражданское общество, молодежный активизм, социальные отношения, новаторский активизм, социальные проблемы, экономика, духовные реформы

Abstract: The article discusses the prospects for life based on the recognition of the issues of increasing and improving the participation of young people in the development of social relations in our country as one of the priority tasks, and the transformation of issues of state policy related to youth into the most important value of building a civil society

Keywords: civil society, youth activism, social relations, innovative activism, social problems, economy, spiritual reforms

Mamlakatimizda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishida yoshlarning daxldorligini oshirish va uni takomillashtirish masalalari ustivor vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi. Yoshlarga oid davlat siyosati masalalarini fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim qadriyatiga aylanishi, demokratik an'analar asosida hayotiy istiqbollarini belgilanishi muhim mezon sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda yoshlar hayotiga doir amaliy jarayonlar, yoshlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, ularga eng zamonaviy asosdagi shart-sharoitlar yaratish borasidagi masalalar davlat siyosatining ustuvor darajasiga ko'tarildi.

Yoshlarga oid davlat siyosati mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lib, undan ko'zlangan maqsadlar yoshlarni ijtimoiy hayotda to'liq va



mukammal ravishda o'z o'rnini topishi, har tomonlama bilimli, irodali, iste'dodli va salohiyatli bo'lib kamol topishi, o'z iste'dodlarini doimiy ravishda erkin asosda namoyon etib borishi borasida olib boriladigan dasturiy chora-tadbirlar majmuidir. Bu jarayonlarni ro'yobga chiqarishda davlatimiz tomonidan tashkiliy, me'yoriy, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Yoshlarning ijtimoiy hayotda o'z imkoniyatlarini to'laqonli ravishda ro'yobga chiqarish borasida barcha masalalar kafolatli ravishda hal etib kelinmoqda. Yoshlarga oid davlat siyosatining barcha me'yoriy-huquqiy va qonunchilik amaliyoti mukammal shakllantirilgan bo'lib, bu borada qonun osti hujjatlar tegishli shart-sharoitlarda o'z vaqtida qabul qilinib borilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida yoshlar faolligining barcha shakllarini takomillashtirishga uzoq tarixiy davrlardan buyon e'tibor qaratib kelingan. Yunon faylasufi Suqrot jamiyatda yoshlarning axloqida taraqqiyotga daxldorlik tuyg'ularini tarbiyalash muhimligini ta'kidlagan. Arastuning insoniy xislatlarni aks ettiruvchi aqliy fazilatlar va yaxshi xulq-atvor tarzi to'g'risidagi qarashlari ham shular jumlasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha fuqarolarga taalluqli me'yorlardan tashqari, aynan yoshlarga tegishli bo'lgan qoidalar ham mavjud. Jumladan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 50, 51, 52, 53-moddalari ta'limga oid hisoblanib, 50-moddasida: «Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi», deb belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, konstitutsiyamizning "78-moddasida "Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir; "79-moddasida "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi"; "80-moddasida "Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar", degan me'yorlar qayd etilgan.

Jamiyatda yoshlarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi, farovon yashashi, kundalik turmushidagi ijobiy o'zgarishlarining xususiyatlari bilan bog'liqdir. Yoshlarga

1 Сократ. //А.В.Лебедев// -Москва, Большая российская энциклопедия, 2015. Аристотель. Никомахова этика. Сочинения. Том. 4.-Москва: "Мысль", 1983.-С.173.



oid davlat siyosatini ta'minlash tizimida yoshlar va jamiyatning boshqa aholi toifalari o'rtasida doimiy tizimiy o'zaro aloqadorlik kuzatiladi. Bu o'zaro aloqadorlik jamiyat milliy manfaatlarini ta'minlash, unda mavjud bo'lgan barcha Konstitusiyaviy-huquqiy tamoyillarga og'ishmay amal qilish, mamlakat farovonligi uchun birgalikda kurashish bilan bog'liq barqaror xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Barcha me'yoriy va tashkiliy asoslardagi chora-tadbirlar nazariyasi va amaliyotida yoshlar mamlakatimizning kelajagi va istiqbolini ta'minlaydigan ijtimoiy guruh sifatida e'tirof etilmoqda. So'ngi yillarda, yoshlarning jamiyatdagi nufuzini mustahkamlash, ularning hayotiy pozitsiyasini mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-sonli "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-sonli "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi "2022–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 310-sonli Qarori" 2 , shular jumlasidandir.

Yuqoridagi me'yoriy hujjatlar ijrosi yuzasidan mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi. Farmonda Yoshlar ishlari agentligi bajaradigan ko'plab vazifalar o'rin oldiki, ularda yoshlarning har tomonlama qo'llab-quvvatlashning innovatsion mexanizmlari ko'rsatib o'tildi. Masalan: yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari!" g'oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash;

yoshlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini amalga oshirishda faol ishtirok etish;

iqtidorli yoshlarni yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalariga ta'lim olish uchun yuborish, xalqaro tanlovlarda ishtirok etishini ta'minlash, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini qamrab olgan beshta muhim tashabbusni keng joriy etishga qaratilgan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning intellektual salohiyati va iste'dodini rivojlantirish;



yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli iqtisodiyot ko'nikmalarini puxta egallashlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash jarayonlariga ko'maklashish;

yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, yoshlar sohasidagi xalqaro reytinglarda mamlakatimiz mavqeini oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rish, xorijda ta'lim olayotgan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish"³ belgilab qo'yilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda bugungi kunda yoshlar tomonidan ijtimoiy masalalarni hal etish borasida taklif va tashabbuslar, hududlarda mavjud muammo hamda masalalarni yechimi yuzasidan dasturlar qabul qilinib borilmoqda. Bu masala bo'yicha hukumat, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shahar hokimliklari ham doimiy ravishda yoshlar muammolarini hal etish bilan aloqador ravishda ko'plab dasturlar va chora-tadbirlar rejalari qabul qilinmoqda. Demak, yoshlar muammolari davlat, hukumat va hokimliklar darajasida doimiy ravishda hal etilib, muhim chora-tadbirlar ijrosi ta'minlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори “Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизimini тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”. 2022-йил 19-январь. ПҚ-92. <https://lex.uz/uz/docs/5831865>.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 июндаги “2022-2023 йилларда Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш дастурини тасдиқлаш тўғрисида”ги 310-сонли Қарори. www.lex.uz.

3. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – Б.386.

4. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
<http://dd.gov.uz>

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 июндаги ПФ-6017-сонли «Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. www.lex.uz.